

O'zbekistonda yangi MBA dasturi tashkil etiladi

Malayziyaning [Putra Biznes maktabi](#) bilan hamkorlikda Toshkent shahrdagi Turin Politexnika Universiteti MBA dasturlarini joriy etish bo'yicha kelishuvga erishdi.

MBA (Biznes boshqaruvi magistri) dasturida muxandislik sohasida taxsil olgan universitet bitiruvchilari va hozirda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, tadbirkorlar va kasbiy o'sishga qiziqqan, yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, strategik fikrlash, shuningdek sifat jihatdan kelajakda yangi rivojlanish bosqichini izlayotgan kadrlarni tayyorlash belgilandi.

Putra biznes maktabi AQSHning [AACSB](#) akkreditatsiya agentligi tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazilgan.

Putra biznes maktabi Malayziyaning Putra universiteti ([UPM](#)) qoshidagi maktab xisoblanadi. Jahonning [QS](#) TOP universitetlari reytingida UPM 132 o'rinni egallagan.

